

O'QUV JARAYONINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Raxim Qaxramonovich Do'sanov

Islom Kuvondiqovich Yalqoshev

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti

Samarqand, O'zbekiston

raximdusanov1996@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quv jarayonini boshqarish mexanizmlari keltirib o'tilgan. Unda ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning samaradorligi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: o'quv jarayonini boshqarish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, boshqaruv tizimi, ta'limni boshqarish.


Аннотация. В данной статье представлены механизмы управления образовательным процессом. Анализируется использование цифровых технологий в правлении образовательным процессом и их эффективность.

Ключевые слова: Управление учебным процессом, автоматизированные информационные системы, система управления, управление образованием.


O'quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish uchun raqamli universitet konsepsiyasi taklif e'tiladi. Raqamli universitet konsepsiyasida oliy ta'lim muassasasining barcha bo'lim va fakultetlari raqamlashtirish asosida axborot tizimlari yordamida boshqariladi. Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarini rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni avtomatlashtirilgan holda boshqarishni taqoza qilib bormoqda. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali jarayonlarni boshqarish juda keng ko'lamdagi imkoniyatlarni yoritib beradi. Oliy ta'lim tizimidagi boshqaruv jarayonlarni elektron hisoblash mashinalari yordamida

avtomatlashtirish usullarini takomillashtirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim sohasidagi boshqaruv jarayonlari ortiqcha qog'ozbozlikdan chekingan holda axborot tizimlar yordamida avtomatlashtirish ham ta'lim va fanni rivojlanishiga bir muncha hissa qushgan hisoblanadi. Ta'limni boshqarishda axborot tizimlari orqali sun'iy intellekt mexanizmlarini qo'llash orqali ta'lim oluvchini intellektual salohiyatini oshirish jarayonini tahlil qilish imkoni yaratiladi. Oliy ta'lim tizimida quyidagi bo'limlar boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish ish faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli universitet konsepsiyasini amalga oshirish uchun quyidagi sxemadagi mexanizmlarni amalga oshirish kerak bo'ladi(1.1-rasm).



1.1-rasm.Raqamli universitet konsepsiyasini amalga oshirish.




1.2-rasm.Raqamli universitet tarkibiy qismlari.

Raqamli kampus - bu samarali ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan ta'limga yo'naltirilgan ijtimoiy muhit. Ushbu tarmoqda Universitetning barcha tarkibi va muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan barcha onlayn xizmatlar to'plangan(1.3-rasm).



1.3-rasm.Raqamli kampus.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan sinf xonasining tarkibiy qismlari quyidagi ko'rinishda bo'ladi(1.4-rasm).



1.4-rasm. Raqamli sinf xona.

Oliy ta'lim muassasasini raqamlashtirish uchun dastlab oliy ta'lim muassasasini eng asosiy bo'limlarini raqamlashtirish mexanizmlari ko'rsatiladi. Oliy ta'lim muassasasida shartnoma -to'lov, kutubxonadan foydalanishni avtomatlashtirish, o'quv jarayonini boshqarish(Hemis), moddiy ashyolar bo'limi, kadrlar bo'limi, buxgalteriya bo'limi (UzASBO), devonxona, ma'naviyat bo'limi, yoshlar ittifoqi kabi bo'limlarni raqamlashtirish sifatida quyidagi sxemani keltirish mumkin(1.5-rasm).



1.5-rasm. Oliy ta'lim muassasasining bo'limlarini raqamlashtirish.

Yuqorida ishlab chiqilgan usul va mexanizmlar asosida oliy ta'lim muassasasining barcha bo'limlarini raqamlashtirilgan holda boshqarish imkoniyati yaratiladi.

O'quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash algoritmlari va mexanizmlari ishlab chiqildi. Raqamli universitet texnologiyalari va usullarining mazmuni asosida raqamli universitet modeli ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Axatov.,F.Nazarov. Ta'lim shartnoma to'lovlarining cheklangan muddat va kechikish sharoitlari ko'rsatkichlarini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi// xalqaro ility maqolalar to'plami. SamDU Pedagogika fakulteti.2018.[191-194]

2. Axatov A., Mardonov D., Nazarov F. **Modelirovaniye otnosheniya proessov opredeleniya reytingov i zanyatosti na osnove sifrovых texnologiy**. Vestnik TUIT. Tashkent. № 3(10).2020.

3. Axatov A., Mardonov D., Nazarov F. **Modelirovaniye bazı dannyx sistemi monitoringa reytinga i trudovых otnosheniy**. **Problemy informatiki** i energetiki, TUIT, Tashkent. № 3(5).2020.

4. Nazarov F.M.Do'sanov R.Q.Saydullayev Q. O'quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash usullari va ularning samaradorligi.UZA Ilm-fan (Elektron jurnal). -2022. №(4). [365-372]. B